



# **“O‘ZBEK XALQ MUSIQA SAN‘ATI VA IJODIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI, ZAMONAVIY TARAQQIYOT TENDENSIYALARI”**

**mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy  
anjuman materiallari**

**2023-yil 23-sentabr**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK XALQ MUSIQA SAN‘ATI VA  
IJODIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI,  
ZAMONAVIY TARAQQIYOT  
TENDENSIYALARI”**

**mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari**

**2023-yil 23-sentabr**

**Бухоро – 2023**

## MUNDARIJA

O.X.Namidov. O'zbek xalq musiqa san'ati va ijodiyotining tarixiy ildizlari, zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari..... 3

### **1-SHO'BA. HOZIRGI DAVR TARAQQIYOT BOSQICHIDA MUSIQA IJROCHILIGI, MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDAGI DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLAR... 4**

Saidiy Said Boltazoda. AVESTO DAVRINING XORAZM VA SUG'DIYONA MUSIQA MAKTABLARI MADANIYATIDA IJROCHILIK USHLARI..... 4

Askar Xidirov. O'ZBEK MUSIQA SAN'ATINING QADIMIY ILDIZLARI TARIXIDAN ..... 6

Toshmurodov Bahridin Umarovich. ZARDUSHTIY VA BUDDAVIYLAR DAVRI OMMAVIY MUSIQA VA BADIY SAN'AT TARIXI VA TURLARI..... 8

Pirmatova Nodira Yigitaliyevna. Ayol san'atkorlarining ijrochilik vositalari ..... 10

Рустамов Шавкат Шухратович. СУЩНОСТЬ ИННОВАЦИЙ КОМПЕТЕНТНОСТЬ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ ..... 12

Kamolov Shavkatjon Xadjiyevich. Musiqiy faoliyatlarni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari ..... 14

Nusratova Mexriniso Baxshilloevna. ALTRUIZM FENOMENINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MANBALARDAGI ILMIY ASOSLARI..... 15

Farhodjon NAZAROV. BADIY VA ESTETIK QARASHLARI..... 17

Samatova Dilnoza Salaidinovna. CHOLG'U SOZLARI VA IJROCHILIK IMKONIYATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI..... 20

Qarshiboyev Zohidjon O'ralboy o'g'li. O'QUVCHI YOSHLAR BILAN ISHLASHDA IJODIY-MADANIY HAMKORLIKNING SAMARADORLIGI ..... 22

Sh.K.O'rinov. DAVLAT VA NODAVLAT TEATRLARDA MARKETING XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY MODELLARI ..... 24

Расулов Равшан. ЭСТРАДА САНЪАТИДА ЖАНР ..... 28

Bafoyev Nodirshoh. XALQ CHOLG'ULARI IJROCHILIGINING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATLI QIRRALARI ..... 30

Hamitova Sunbula Bahodir qizi. O'ZBEK TEATRLARIDA REJISSURADAGI MUAMMO VA YECHIMLAR ..... 32

Saodat Sadullayeva. IJTIMOIIY-IQTISODIY ISLOHOTLAR – MADANIY-OMMAVIY TADBIRLAR SENARIYSIDA ..... 34

Nilufar Shamsiyeva. BOSHQARUVNING AMERIKA, YAPON VA SHVED MODELLARI. 38

Shahrizoda Muhammadiy. MADANIYAT VA SAN'AT SOHASI MARKETINGNI TASHKIL QILISH..... 40

### **2-SHO'BA. O'ZBEK XALQ MUSIQA FOLKLORINI O'RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI; ..... 43**

To'xtasin Rajabov Ibodovich, Sardorbek Ibodov To'xtasin o'g'li. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatishning nazariy va amaliy asoslari ..... 43

Sunnatillayev Asatillo Sunnatovich Folklor-etnografik jamoalari repertuarida to'y marosim qo'shiqlaridan foydalanish masalalari ..... 47

Axmedova Oygul Maxamataliyevna. O'ZBEK XALQ DOSTONLARINI TA'LIM TIZIMIDA O'QITISH MASALALARI ..... 53

А.Э.Қўшаев, И.А.Қўшаев, И.И.Ахтамов. ОЛИЙ МУСИҚИЙ ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМДА БАХШИЛИК ДОСТОН САНЪАТИ АСОСЛАРИНИ ЎРГАНИШ МУАММОЛАРИ..... 54

O.I.Karimov. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FOLKLOR ANSAMBLINI TASHKIL ETISHNING AMALIY - METODIK ASOSLARI ..... 57

Бердиханова Шахида Нурлыбаевна. К ВОПРОСУ ИЗУЧЕНИЯ КАРАКАЛПАКСКОЙ ТРАДИЦИОННОЙ МУЗЫКИ..... 59

- ijro asoslarini o'zlashtirish ishini cholg'uda bevosita bajarish;
- o'qituvchi va o'quvchilarni samarali faoliyat ko'rsatishiga erishish;
- mashhur sozandalar ijrosi bilan tanishtirish;
- o'quvchilar bilimlarini nazorat qilib, yutuq va kamchiliklari ustida doimiy ish olib borish va shularga o'xshash tadbirlar amalga oshirish kerak bo'ladi.

O'qituvchi har bir mashg'ulotda faqat amaliyot bilan cheklanmay, uning nazariy va tarbiyaviy tomoniga katta ahamiyat berishi, kuy va ohang vositasida o'quvchining didi, go'zallikka intilish, nafosat, ona Vatanga muhabbat, atrof-muhitni asrash, kattalarga hurmat ko'zi bilan qarash kabi hislatlarni shakllantirib borishi zarur. Berilgan har bir musiqiy asarni o'rganish jarayonida mehnat qilish, qiyinchiliklarni yengish, yangi asarlarni mustaqil o'rganish qobiliyatini o'stirish va o'z mehnatidan zavqlana olish bilan birga atrofdegilar mehnatiga ham munosib baho bera olish, qadrlash hissini uyg'ota olish o'qituvchidan yuqori darajali mahoratni talab etadi.

Shu xislatlarga ega bo'lgan o'quvchi nafaqat komil inson, mohir san'atkor, sozandagina bo'lib qolmasdan, balki ma'naviy yetuk, barkamol shaxs bo'lib yetishadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim olayotgan yoshlarning har birida intilish hosil qilishi kerak. Bizning asosiy maqsadimiz, zamonamizni yuksak talablariga javob beradigan munosib mutaxassislar yetishtirish. Aqlli va e'tiqodli, vazmin, ulug'vor va mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlariga xos ahloqiy pok, chuqur bilimli xalq cholg'ularida ijrochilik saviyasini yuqori darajada o'zlashtirgan oqilu-fozil, mohir sozanda-ijrochilarni tayyorlashga e'tiborimizni qaratmog'imiz lozim.

Bugungi kunda, xalq cholg'ularida ijrochilik san'atining shakllanishi, an'anaviy va yangi yo'nalishdagi ijrochilik uslublar munosabatlari chambarchas bog'liqlik bilan hamda bir-birini to'ldirgan holda rivojlanib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kungacha qilingan ishlarimiz, erishgan yutuqlarimiz dengizdan bir tomchi deb hisoblaymiz. Yosh avlod orasida ilm-fanga, madaniyat va san'atga chanqoq, xalq cholg'ularida ijrochilik san'atining dovrug'ini jahonga taratadigan ishtiyoqmand aqliy salohiyat egalari oramizda ko'p. Orzu niyatlarimizni ro'yobga chiqarishda yoshlarimiz uchun shart-sharoitlar yaratish, musiqa maktablari, bilim yurtlari va oliy ta'lim o'qituvchilarining birinchi navbatdagi vazifalaridir. Kelajak avlodga musiqiy san'atimizning taqdirini topshirish uchun halol mehnat qilishimiz kerak, ijrochilik san'ati masalalariga e'tiborimizni tobora kuchaytirishimiz kerak, jaxon andozasi talablariga javob beradigan musiqiy daholarni tarbiyalab yetishtirishimiz bizning eng muhim majburiyatlarimizdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Liviyev. O'zbek milliy cholg'usozlik tarixi. "Bilim". T., - 2005y. – 159 b
2. Sh. Rahimov, A. Lutfullayev. Cholg'ulashtirish. "Musiqqa". T.,- 2010y. – 120 b.
3. Петросьянц А. Инструментоведение (узбекские народные инструменты) Ташкент. 1980, 1990
4. Берлиоз Г. О современной инструментовке и оркестровке. I—II т. М., 1972.

#### O'ZBEK TEATRLARIDA REJISSURADAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Hamitova Sunbula Bahodir qizi

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o'qituvchisi

**ANNOTTATSIYA:** *Ushbu maqola Hozirda respublika teatrlarida yosh rejissyor kadrlarning yetishmayotgani, mavjudlari ham bugungi tomoshabin talabiga javob beradigan har tomonlama yetuk spektakl sahnalashtirish, zamon taraqqiyotidan bir qadam oldinda yurish masalalarida sust ekanligi, sohadagi kadrlar almashinish jarayoni og'ir kechayotganligi, Rejissyorning doimiy ravishda yangilikka intilishi spektaklning zamonaviy yangrashiga sabab bo'lishi, zamonaviylik rejissura uchun asosiy o'rinda turishi lozimligi haqida yozilgan.*

Har bir soha rivojida turli kamchiliklarga duch kelingani singari o'zbek teatri san'atida kamchiliklar yo'q emas. Bu, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida mazmunan sayoz, shaklan jo'n spektakllar teatrlar repertuarining asosiy qismini egallab borayotganida ko'rinadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida: "Real hayotdan yiroq, odamga katta ma'naviy oziq bermaydigan asarlar bilan teatrlar kassasini to'ldirish holatlari ko'proq ko'zga tashlanmoqda", deb aytgan haqli so'zlari zamonaviy o'zbek teatri san'atining mavjud holatini aniq aks ettiradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 yil 3 avgustdagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda: "Hurmatli teatr arboblaringiz o'zlarining matbuot va televideniyaedagi chiqishlarida ko'pincha ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Teatr – ibratxonadir" degan hikmatli so'zlarini keltirishni yaxshi ko'radilar. Lekin mana shu dono so'zlarni faqat og'izda aytmasdan, o'z faoliyatimizda ularga amal qilsak, ayni muddao bo'lardi"<sup>1</sup> degan mulohazalari o'zbek teatri oldidagi vazifalarni aniq belgilaydi.

Bugungi kunda kuchayib borayotgan ma'naviy tahdidlar, "ommaviy madaniyat" hamda ekstremistik g'oyalarning zararli ta'siri ostida qolayotgan yosh avlodni ongu qalbida ularga qarshi mafkuraviy immunitet hosil qilishda teatr san'atining o'rni beqiyos. Mazkur masalalar g'oyaviy va badiiy jihatdan puxta, tomoshabinga ma'naviy ozuqa va estetik zavq bera oladigan spektakllarni yuzaga keltirish orqali hal etiladi. Spektakllarni rejissyor boshchiligida to'laqonli sahnalashtirish mumkinligi inobatga olinsa, bu yo'lda rejissuraning o'rni muhimligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Bugungi jadal ravishda rivojlanib borayotgan zamonda dunyoning ko'plab mamlakatlari teatr san'ati, xususan, rejissura turli darajada taraqqiy topishi bilan birga, mazkur san'atga bo'lgan qarashlar ham birmuncha o'zgarishlarga yuz tutdi. Rejissyorning spektakl muallifi sifatidagi maqomi yanada ortdi. Buning natijasida zamonaviy o'zbek teatri rejissurasini jahon teatri erishayotgan yutuqlar, yangicha qarashlar hamda ularning milliy teatr an'analari bilan bog'liqligi asosida konseptual o'rganish, chuqur tahlil qilish hamda tegishli xulosalar chiqarish ehtiyoji tug'ildi.

Hozirda respublika teatrlarida yosh rejissyor kadrlarning yetishmayotgani, mavjudlari ham bugungi tomoshabin talabiga javob beradigan har tomonlama yetuk spektakl sahnalashtirish, zamon taraqqiyotidan bir qadam oldinda yurish masalalarida sust ekanligi sohadagi kadrlar almashinish jarayoni og'ir kechayotganidan dalolat beryapti. Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasidagi kemtiklarni yamash, teatrning zamonaviy ijodiy qiyofasini belgilash, repertuarini shakllantirishda rejissyorning o'rni va ahamiyati yuksakligi hisobga olinsa, yuqoridagi masalalarning dolzarbligi yaqqolroq namoyon bo'laveradi. Mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etib, rejissuraning keyingi rivojlanish yo'lini aniqlash va belgilash, professional yosh rejissyor mutaxassislarning shakllanishi uchun aniq yo'nalishlarni ko'rsatish kabilar bugungi teatrshunoslik ilmi sohasida ilmiy-tadqiqot olib borish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Rejissyorning doimiy ravishda yangilikka intilishi spektaklning zamonaviy yangrashiga sabab bo'ladi. Zamonaviylik rejissura uchun asosiy o'rinda turishi lozim. Rejissyor B.Yo'ldoshev 1982 yili M.To'laxo'jayeva bilan suhbatda "agar biror kishi rejissyorlik kasbiga mehr qo'ysa-yu, lekin zamonaviy fikrlash uslubiga ega bo'lmasa, unday kishini chin ma'nodagi rejissyor deb bo'lmaydi. Rejissyorlik kasbi kishidan o'z dunyoqarashiga, hayotga nisbatan munosabatiga, voqealar, hayotiy jarayonlar xususidagi o'z tushunchasiga ega bo'lishi, davr tomonidan san'at oldiga qo'yilayotgan vazifalarni chuqur tushunib yetishni talab qiladi"<sup>2</sup> deya ta'kidlagan. Uning fikrlari bugungi kunda ham ahamiyatli. Chunki asardagi aynan zamonaviylik va dolzarblik hozirgi tomoshabin e'tiborini jalb qiladi. Shunday ekan, zamonaviy teatrni qanday yaratish, zamonaviylik muammosini yechish bugungi rejissyorni o'ylantirishi lozim. Kechagi topilma bugun qanoatlantirmasligi kerak.

Rejissyor fikr yurituvchi sifatida o'zi qo'yayotgan tomoshaning mavzusi va g'oyasini yaxshi bilib, tomoshabinga va qatnashchilarga o'zi ilgari surgan g'oyasini va oliy maqsadini yetkazib bera olsa tomoshaning tarbiyaviy va axloqiy tomonlarini ham aniq ko'rsata oladi.

"O'zbek teatrlarida rejissuradagi muammo va yechimlar" mavzusida yozilgan maqolaga xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamon jadal ravishda rivojlanib boryapti. Har kuni dunyoning turli

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // "Xalq so'zi", 2017, 4 avgust.

<sup>2</sup> Komponentlar bus-butun // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1982 yil, 23 iyul.

chekklarida kashfiyotlar qilinmoqda. Tomoshabinlar teatr bilan hamnafas yashashi uchun teatr ijodkorlari ham ana shunday kashfiyotlar bilan ularni siylashi muhim. Ayniqsa, katta sahnaga endigina qadam qo'yayotgan rejissyorlar bu borada ilg'or bo'lishi talab qilinadi. Shuni aytib o'tishimiz joizki, rejissyorga tabiatdan sifat, aql, yumor, erkinlik, kuzatuvchanlik, tasavvur, ato qilingan. Lekin rejissyor qobiliyati ustida tinimsiz ishlab, bu qirralarni rivojlantirishi lozim. Bundan tashqari, rejissyor hayotni tushunish, faollik, tashkilotchilik, pedagoglik, badiiy did, obrazli fikr qila olish, tahlil qila olish, o'tkir zehnilik qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak. Mana shu o'rganilgan bilimlar hayotiy amaliyotda mustahkamlanishi shart.

Rejissyor doimo xalq bilan hamnafas bo'lib, uning dardini o'ylab yashashi zarur bo'lib, bundan tashqari zehning tezligi va emotsionalligi, eslab qolish qobiliyatining kuchliligi va sharoitdan kelib chiqqan holda harakat qila olishi, badiiy improvizatsiya qila olish qobiliyati juda yuqori bo'lishi lozim. U millat farzandi sifatida zamondoshlarining o'y-kechinmalari, orzularini sahnada ifodalashi ahamiyatlidir. Stanislavskiy yozganidek, "har bir millat, har bir xalq san'atda o'zining eng nozik milliy insoniy jihatlarini aks ettirsin, mazkur san'at o'zining milliy bo'yoqlari, ohanglari, o'ziga xosliklarini saqlab qolsin; yaxshi milliy asar, uning yaxshi talqini xalq qalbini yaxshiroq yoritadi"<sup>1</sup> Demak, zamonaviylik, dolzarblik, milliylik bugungi rejissuraning maqsad-muddaosiga aylanishi zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili // "Xalq so'zi", 2016, 31 dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // "Xalq so'zi", 2017, 4 avgust.
4. Stanislavskiy K. Собрание сочинений, 8 tomlik. 6-tom, M.: "Iskusstvo", 1959. – 466 b.
5. Toji Muhammad. Rejissyor. T.: Adabiyot uchqunlari, 2015. – 256 b.
6. To'laxo'jayeva M. Rejissyor izlanishlari // "Teatr" jurnali, 1999/1-2-son.
7. To'laxo'jayeva M. Rejissura izlanishlar yo'lida // "Teatr" j., 2008/4.

### IJTIMOIIY-IQTISODIY ISLOHOTLAR – MADANIY-OMMAVIY TADBIRLAR SENARIYSIDA

Saodat Sadullayeva,  
BuxDU San'atshunoslik fakulteti,  
Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil  
etish hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi,  
4-bosqich talabasi

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning negizida madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Qaror, 5 muhim tashabbus, debyut, nomoddiy madaniy meros.

Bugun O'zbekiston o'zgarimoqda. Mamlakatimizda keng ma'noda barcha sohada tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy yoki iqtisodiy sohalar, ishlar chiqarish yo'nalishlarida ham tub burilishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan besh mobaynida oqsoqlanib qolgan qolgan, hamda mamlakatning rivojlanish mexanizmida eskirgan ko'rinishga ega bo'lgan tuzilamalar hukumatimiz ayniqsa davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilinglar Farmon va Qarorlarni mazkur sohalar tatbiq etilishi ortidan formaviy ko'rinishlari, funksional vazifalarida o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlar nafaqat mahalliy aholi balki xorijiy mamlakatlarda ham olib borilayotgan shaffof siyosat e'tirof etilmoqda. Birgina, misol tariqasida aytib o'tishimiz mumkinki, O'zbekiston reytingda o'z ko'rsatkichlarini birdan 24 pozitsiyaga yaxshilaniib,